

**“Yoshlik I” konini o‘zlashtirish” (I bosqich, 1-navbat) investitsiya loyihasi
doirasida “Yoshlik I” karerni qurish va uning ishlab chiqarish
infratuzilmasini barpo etish bo‘yicha**

MA’LUMOTNOMA

01.01.2026 y.

Asos: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Olmaliq KMK” AJ konlari negizida rangli va qimmatbaho metallar ishlab chiqarishni kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020 yil 26 maydagi PQ-4731-son qarori

Loyihaning quvvati: yillik **917 ming tonna** mis konsentrati va **2,5 ming tonna** molibden konsentrati.

Loyiha qiymati: **4 620,4 mln dollar**

Moliyalashtirish manbai: O‘z mablag‘lari, To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya mablag‘lari.

Joylashgan manzili: Toshkent viloyati, Olmaliq shahri, “Olmaliq KMK” AJ.

Xomashyo bazasi: Qalmoqqir, Yoshlik-1 konlari rudalarini qayta ishlash hisobiga ishlab chiqariladigan mis-molibden konsentratidan olinadigan mahsulotlar (mis katodi, oltin, kumush).

Yaratiladigan ish o‘rni: **5 647 ta**

Elektr energiyasi sarfi: yillik **568,7 mln KVt/s** **Gaz iste‘moli**

xajmi: yillik **3,3 mln m³**

Tovar mahsulot: yillik **3 594,5 mlrd so‘m** **Eksport**

ko‘rsatkichlar: yillik **241,6 mln dollar**

Loyihani amalga oshirish muddatlari: **2017-2025 yillar** **Loyihani amalga**

oshirishdan maqsad: yiliga **60 mln tonna** mis-molibden rudasi ishlab chiqarish

2026 yil 1 yanvar holatiga o‘zlashtirish: **4 486,6 mln. dollar.**

1. “Yoshlik I” konida karerni qurish va uning ishlab chiqarish infratuzilmasini barpo etish.

Karerni qurish bo‘yicha loyiha boshidan:

240,45 mln m³ dan ortiq (yil boshidan **29,4 mln m³** dan ortiq) kon yuzasini ochish ishlari bajarildi (*ishlar 2 smenada tashkil etilib, loyiha bo‘yicha 1 800 nafar ishchi-xodimlar va 400 tadan ortiq texnika ishlamoqda*) hamda **45,6 km** temir yo‘llar yotqizildi;

607 tadan ortiq (*487,6 mln dollar*) kon texnikasi (*54 ta 130 tonnalik, 29 ta 220 tonnalik BelAZ, 5 dona NMT-240 TEREX- KRANTAS 220 tonnalik va 5 dona HITACHI 220 tonnalik samosvallari, 33 ta ekskavator, 23 ta burg‘ilash uskunasi, 12 ta aralashtirish-zaryadlash mashinalari*) **254 ta** temir yo‘l texnikasi (*1 ta elektrovoz, 5 ta teplovoz, 212 ta dumpkar, 7 ta yo‘l qurish texnikasi*) shuningdek **192 ta yordamchi texnika**) xarid qilindi.

Siklik oqim texnologiyasini (“TSPT - Poroda - 2”)

yiliga **20 mln m³** dan oshiq bo‘sh tog‘ jismlarini tashuvchi aSiklli oqim texnologiyasini (“TSPT-poroda”) qurish uchun **5,9 mln m³**dan (rejaga nisbatan 80,8 foiz) ortiq yer ishlari amalga oshirildi;

2024 yil 24 iyun sanasida Siklli oqim texnologiyasini (“TSPT Poroda- 2”) “ERS” shartlarida qurish bo‘yicha o‘tkazilgan rasmiy tender yakunlariga ko‘ra «TMX Consulting Ltd» kompaniyasi qiymati **122,2 mln. AQSH** dollarga teng (QQS bilan) tijorat taklifi bilan tender

g'olibi deb e'lon qilindi.

2024 yil 6 noyabrdagi 69-8226-son shartnoma imzolandi. Dastlabki bo'nak to'lovlari to'liq amalga oshirildi. Asosiy texnik yechimlar kelishildi, bugungi kunda loyihalash ishlari bajarilmoqda.

Kon sanoat maydonchalari:

- "Yoshlik I" va "Qalmoqir" konining TK-1 va TK-2 sanoat maydonchalari qurilishi bo'yicha loyiha hujjatlari bosh loyihachi tomonidan taqdim etilgan.

- "Yoshlik I" sanoat maydonchasining y e r ishlari to'liq bajarilgan. Perimetral to'siq devori **100 foizga** bajarildi.

Binolarning poydevor qismi **95 foizga** ga bajarilgan. "Sklad TMTS", "Sklad KGSH", "Naves s osmotrovoy yamoy"da ferma, aloqa, rasporka tayyorlanib montaj ishlari davom etmoqda, "RMM" va "Post svarki i rezki"da binoning metall ustunlari va ularni bir-biriga bog'lovchi metall (aloqa,rasporka)lar montaji qilinib, ferma tayyorlash ishlari boshlanmoqda. Ma'muriyat binosining tom va devor qismlari sendvich panel qoplamasi bilan yopish ishlari **100 foizga** bajarildi. Hozirda ichki xonalar to'siq devorlari o'rnatish, elektromontaj va ventilyatsiya ishlari davom etmoqda.

- "Qalmoqqir" sanoat maydonchasiga olib boruvchi 1,2 km. Yo'l to'liq tugallangan.

"Qalmoqqir" sanoat maydonchasining perimetrial to'siq devori **100 foizga** bajarildi.

Obyektda 80% bino va inshootlarni kotlovan va transheya qismlari kovlangan hamda "Naves s osmotrovoy yamoy" obyektida armatura to'qish ishlari bajarilmoqda. RMM va post svarka obyektlariga anker bolt o'rnatish ishlari bajarilmoqda, hamda mamuriy bino obyektining **90 foiz** poydevor qismi bajarilgan hamda gidroizolyatsiya ishlari bajarilmoqda.

- GSHO sanoat maydonchasi qurilishi bo'yicha loyiha hujjatlari bosh loyihachi tomonidan taqdim etilgan.

Bino va inshootlar qurilishi **98 foizga** bajarilgan.

Hozirda binolarning suv ta'minoti uchun transheya kovlash ishlari bajarilmoqda.

Kon va bo'sh tog' jismlarini tashuvchi siklli oqim texnologiyasi uskunalarini elektr energiyasi bilan ta'minlovchi TP-8 va TP-9 nimstansiyalari bo'yicha pudratchi "O'zelektroapparat-Electroshield" qo'shma korxonasi tomonidan loyiha hujjatlari bajarildi. Pudratchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari 2025 yil tugatilinadi va foydalanishga topshiriladi.

- "TP-8" qurilishi bo'yicha vertikal maydoni tayyorlash ishlari tugatilgan va dalolatnomalar topshirilgan.

- **2 dona 80 MVA** transformatorlar o'rnatilgan. Qurilish montaj ishlari **100 foizga** bajarilgan. Pusko-naladka ishlari olib borilmoqda, shu bilan birga obyektни ishga to'liq tushirish uchun texnik hujjatlar tayyorlanmoqda.

2024 yilning 30 avgust sanasida ishga tushirildi.

- "TP-9" qurilishi bo'yicha vertikal maydonini tayyorlash ishlari tugatilgan va dalolatnomalar topshirilgan.

- **2 dona 63 MVA** transformatorlar transformatorlar o'rnatilgan. Qurilish montaj ishlari **100 foizga** bajarilgan.

Qurilish ishlari **100 foizga** bajarilgan. Pusko-naladka ishlari olib borilmoqda.

Joriy yilda ishga tushirishi rejalashtirilgan.

2. 650 megavatt quvvatli tashqi elektr ta'minoti obyektini qurilishi

Elektr ta'minoti obyektlarini qurish bo'yicha "O'zelektroapparat- Electroshield" qo'shma korxonasi tomonidan **10 km** 500 kVli elektr liniyasining qurilishi **100 foizga** bajarildi.

Shuningdek, 500 kV raqamli podstansiyasida qurilish-montaj ishlari va asosiy uskunalarini

yetkazib berish **100 foiz**ga bajarildi. Obyekt 2023 yil dekabr oyida qurilish ishlari yakunlanib, bugungi kunda foydalanishga topshirildi.

3. Portlovchi materiallar zavodi va Portlovchi materiallar omborini rekonstruksiya qilish:

Asosiy ishlab chiqarish texnologik uskunalari: Jami 13 dona sig‘im o‘rnatildi, texnologik modullar 100%ga bajarildi, sovutish tizimi to‘liq ishga tushirildi va kompressor hamda bug‘ generatorlari o‘rnatildi. Bino va inshootlar qurilishi yakunlangan bo‘lib, hozirda uskunalarini sozlash va sinovdan o‘tkazish ishlari olib borilmoqda.

Yordamchi uskunalar va qurilmalar:

Tashqi elektr ta‘minoti, transformatorlar, yordamchi materiallar saqlanadigan ombor, tarqatish omborlari 100%ga bajarilgan. Shuningdek, tashqi va ichki suv ta‘minoti tizimlari, qo‘shimcha temir yo‘l kesishmalari qurilishi davom etmoqda. Texnologik suvlarni qayta ishlash uskunasi xarid qilinib montaj ishlari boshlangan. Yoqilg‘i tarqatish ombori inshootlarini xarid qilish va o‘rnatish ishlari yakunlanish arafasida.

Loyiha 2025 yil oxirida to‘liq ishga tushirilishi rejalashtirilgan.

Vaqtinchalik avto va temir yo‘llar

Tashqi kommunikatsiya va vaqtinchalik temir yo‘l izlari qurilishi olib borilmoqda.

TIAGA ko‘ra jami **45,6** km. temir yo‘llar qurilishi rejalashtirilgan bulib shundan 01.12.2025y. holatiga qurilish ishlari umumiy qiymati **166,3** mlrd. so‘mlik **44,57** km temir yo‘llar to‘liq qurilgan va elektrlashgan.

Joriy yilda “Qalmoqqir va Koltsevaya stantsiyalari hamda ular orasidagi peregon”, “Svinsovaya stantsiyasi”, “Otvalnaya stantsiyasi” va “Fabrichnaya stantsiya”larining MPTS (signal va strelkalarni mikroprotessorli markazlashtirish) va ESSO (o‘qlar hisobining elektron tizimi) ishga tushiriladi.

Amalga oshiriladigan ishlar.

“Yoshlik I” kareri, Portlovchi materiallar zavodi, ASU GTK, “TN-9”, **8,2** km ichki avtomobil yo‘llari, **1,53** km ichki karyer temir yo‘llar quriladi va elektrlashtiriladi, **4** ta temir yo‘l stansiyalarining mikroprotessorli markazi va o‘qlar hisobining elektron tizimi, namunalarni kesish va tahlil qilish laboratoriyasi, bo‘sh tog‘ jinslarini tashuvchi Siklik oqim texnologiyasi (“TSPT-poroda”) bo‘yicha qurilish ishlari amalga oshiriladi.